


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovksi)  
magistratura mutaxassisligining malaka talablari**

Toshkent • 2023



**·ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat agrar universtiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil «21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi .....	4
1.2.1	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1	Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumi va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	70810701—Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha ta'limga dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

## **1.70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi**

**70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq agrofizikasi)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talabları, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilarini va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

##### **1.2.1. 70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70810701-Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) magistratura mutaxassisligi** – "Qishloq xo'jaligi" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, tuproqlarni agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarni o'rganish, tuproqlar muhofazasini tashkil etish, tuproqlarni unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ishlab chiqarishga joriy qilish, mineral va organik o'g'itlarni qo'llash bo'yicha agrokimyoviy xaritagrammalarni tuzish, tuproq resurslarini eroziya, sho'rланish, botqoqlanish, ifloslanish, zichlanish, degumifikatsiya jarayonlarini saqlashni, yerlarni baholash yo'riqnomalari va ilmiy izlanish natijalari bo'yicha tuproqlarning ball bonitetini belgilash, sug'oriladigan tuproqlarni gumus zahirasi, sho'rланish va eroziyalanish darajasiga, gleyli qatlama qalinligi, agroiqlimga ko'ra bonitirovkalash xususiyatlarini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 70810701- Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:**

- tuproqlar, o'g'it turlari, tadqiqot qilish usullari;
- tuproq mikroflorasi va mikrofaunasi;
- tuproq xaritalari, agrokimyoviy xaritanomalar;
- tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy xususiyatlari;
- tuproqlarni muhofaza qilish, unumdorligipi saqlash va oshirish yo'llari;
- tuproqlarni eroziya jarayonlaridan saqlash va muhofaza qilish;
- tuproq bonitirovka xaritalarini tuzish;

- tuproqlarning ball bonitetlarini hisoblash;
- unumdar, yaylov va lalmi yarlarni hisobga olish;
- tuproq sifatini aniqlash va iqtisodiy bahosini belgilash;
- sho'rlangan tuproqlar, sho'r yuvish, yer osti suvlari, ochiq va yopiq zovurlar;
- o'quv jarayoni;
- ilmiy-tadqiqot jarayoni.

### **1.2.3. 70810701 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi)**

#### **mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;
- loyihiaviy-xaritalash va yarlarni baholash faoliyati;
- servis xizmatini ko'rsatish faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lif muassasalarda ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatalgan tartibda);
- konsalting xizmati faoliyati

### **1.2.4. 70810701 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi)**

#### **mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:**

70810701 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishslash;
- muayyan maydon tuproqlarini agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarni o'rganish bo'yicha namunaviy uslublar asosida ilmiy izlanishlar olib borish.
- tuproq xaritalari va agrokimyoviy xaritanomalarini tuzish va ulardan foydalanish;
- o'g'itlar va hosildorlikni oshiradigan kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish va tuproqlar muhofazasini tashkil etish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlari va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiylar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-ishlab chiqarish matbuotlariga maqolalarni tayyorlash;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etish;
- innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

##### **Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni boshqarish va boshqa tuzilmalarda ishslash;
- tuproqlarni unumdarligini tiklash, saqlash va oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ishlab chiqarishga joriy qilish;
- yirik masshtabli mavzuli xaritalar (eroziyanish xaritasi, gumus bilan ta'minlanish xaritasi, oziqa moddalar bilan ta'minlanish xaritasi, sho'rlanish darajalari bo'yicha xaritanoma va boshqa)larni tuzish;
- mineral va organik o'g'itlarni qo'llash bo'yicha agrokimyoviy xaritanommalarini tuzish;
- tuproq resurslarini eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, ifloslanish, zichlanish, degumifikatsiya kabi jarayonlardan saqlash;
- o'g'itlar, o'sishni rostlovchi preparatlari, kimyoviy himoya vositalarining yangi turlarini joriy qilish jarayonida amalga oshiriladigan tuproq ekspertizalarida qatnashish;
- muayyan tuproq-iqlim sharoitlarida yangi resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

##### **Loyihaviy-xaritalash va yarlarni baholash faoliyatida:**

- loyihalash institutlarida ishslash; loyiha-qidiruv ishlarini olib borish va boshqa ishlar;

- tuproqda ilmiy izlanish ishlari natijasida tuproq xaritalari va agrokimyoviy xaritanomalarini ishlab chiqish;

- yerkarni baholash yo'riqnomalari va ilmiy izlanish natijalari bo'yicha tuproqlarning ball bonitetini belgilash **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

**Servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:**

- xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy xujjalardan foydalana olish;

- tegishli soha bo'yicha servis xizmati ko'rsatish;

- tuproq unumdorligini aniqlashda chet el va vatanimizda qo'llaniladigan usullari hamda asboblaridan foydalanish;

- loyiha tuzishda IKT va kompyuter texnikasidan foydalanish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

**Tashkiliy-boshqaruva faoliyatida:**

- mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;

- ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tatbiq etish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarini rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;

- zamonaliviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtiroy etish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):**

- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

- elektron o'qitish usullarini egallash;

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari agrotaproqshunoslik va agrofizika bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;

- zamonaliviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirishi;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

- uzuksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtiroy etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**Konsalting xizmati faoliyatida:**

- qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligini oshirishda o'g'itlar va kimyoviy vositalardan oqilona foydalanishni va tuproqlar unumdorligini oshirish bo'yicha fermer xo'jaliklari hamda shaxsiy tomorqa egalariga maslahat berishi;

- agrotaproqshunoslik va agrofizikada innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillar tuzishi;

- agrotaproqshunoslik va agrofizika sohasida ilg'or tajribalar va fan yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar izlashi va ularni umumlashtirishi hamda ommalashtirish;

- zamonaliviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtiroy etish.

## **2. 70810701–Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovksi) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan umumiy talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- o‘g‘itlar va hosildorlikni oshiradigan kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish va tuproqlar muhofazasini tashkil etish;
- tuproqlarni unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ishlab chiqarishga joriy qilish bilish;
- yirik masshtabli mavzuli xaritalar (eroziyalanish xaritasi, gumus bilan ta’minlanish xaritasi, oziqa moddalar bilan ta’minlanish xaritasi, sho’rlanish darajalari bo‘yicha xaritanoma va boshqa)larni tuzish bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- mineral va organik o‘g‘itlarni qo‘llash bo‘yicha agrokimyoviy xaritagrammalarini tuzishni bilish;
- tuproqda ilmiy izlanish ishlari natijasida tuproq xaritalari va agrokimyoviy xaritanomalarini ishlab chiqishni bilish;
- yerlarni baholash bo‘yicha yo‘riqnomalar, ilmiy izlanish natijalar va tuproqlarning ball bonitetini belgilashni bilish;
- ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tatbiq etishni bilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarini rejalashdirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni bilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni bilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishni bilish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistrler umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmasetligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – mutaxassislik doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabanining shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lismutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy faoliyat – ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy-pedagogik ishini olib boorish va ilmiy amaliy tajribalar ortirish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** Agrotaproqshunos, tadqiqotchi-pedagog.

**2.3.2.. 70810701- Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'limg shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

**2.3.3. 70810701- Agrotaproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovkasi) mutaxassisligi bo'yicha ta'limg dasturining tuzilishi:**

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM2440	<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	2
1.02	TPXGTFM1404	Tuproq xaritashunosligida geoaxborot tizimlaridan foydalanish	120	4	1
1.03	AGTITUM1404	Agrotaproqshunoslikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	ANTM1406	Antropogen tuproqlar	180	6	1
1.05	O'TAGFM1406	Tuproq-geobotanik tadqiqot uslublari	180	6	2
1.06	TBIAM1406	Tuproq bonitirovkasining ilmiy asoslari	180	6	2
1.07	YEGBM2404	Yerlarni agroekologik baholash	120	4	3

1.08	TMONM2406	Tuproq monitoringi	180	6	3
1.09	ERKDRM1406	Yer kadastrori	180	6	1
<b>2.00</b>	<b>TFE2320</b>	<b>Tanlov fanlari</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	<b>2,3</b>
2.00		Tanlov fanlar ( 3 ta fan)			
		Jami:	1800		
<b>3.00</b>	<b>IF2460</b>	<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1,2,3,4</b>
		HAMMASI	3600		

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 631.4  
OKS 01.040.01

---

Guruh T 55

### Tayanch so'zlar:

agrotaproqshunoslik va agrofizika, kasb faoliyati, magistratura, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kadrlarga talab, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti



Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy  
tadqiqotlar instituti direktori

Direktori Sb.Bobomurodov  
2023 yil « 17 » 07

M.O.

Respublika agrokimyoviy tahlil markazi

Direktori V.Muxitdinov

2023 yil « 14 » 07

M.O.

Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

Rektor K.Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O.

“Tuproq tarkibi va repozitoriysi,  
sifati tahlil markazi” DUK bosh

Direktori O.Jabborov

2023 yil « 18 » 07



“O'ZDAVYERLOYIHA” davlat ilmiy-  
loyihalash instituti bosh

Direktori R.Turayev

2023 yil « 19 » 07

M.O.



**Toshkent davlat agrar universiteti 70810701 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovksi) mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori Sh.Bobomurodov, “Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi” DUK bosh direktori O.Jabborov, “O’ZDAVYERLOYIHA” davlat ilmiy-loyihalash instituti bosh direktori R.Turayev, Respublika agrokimyoviy tahlil markazi direktori V.Muxitdinov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70810701 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika (tuproq bonitirovksi) ta’lim yo‘nalishi.**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sen farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sen, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sen, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sen, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrлari to‘g‘risida”gi PQ-4359-sen Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjalatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatalgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori**

**Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi” DUK bosh direktori**

**“O’ZDAVYERLOYIHA” davlat ilmiy-loyihalash instituti bosh direktori**

**Respublika agrokimyoviy tahlil markazi direktori**

**Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori**

  
Sh.Bobomurodov

  
O.Jabborov

  
R.Turayev

  
V.Muxitdinov

  
S.Islamov